

ANIQLOVCHI VA UNING IFODALANISHI

Bilolova Madina Rejaveli qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20151211>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda o'zbek tili sintaktik qurilishida aniqlovchining tutgan o'rni, uning predmet belgisi va qarashlilikini ifodalashdagi semantik-grammatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida sifatlovchi va qaratqichli aniqlovchilarning nafaqat so'z turkumlari, balki sintaktik qurilmalar (birikmalar) orqali ifodalanishi tahliliy misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sintaksis, aniqlovchi, sifatlovchi, qaratqichli aniqlovchi, bitishuv, boshqaruv, morfologik ifodalanish, predmet munosabati.

Aniqlovchining lisoniy tabiati.

Aniqlovchi gapning ikkinchi darajali bo'lagi bo'lib, u gapda ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalangan bo'laklarga (ega, to'ldiruvchi, qarashli aniqlovchi va h.k.) tobe bog'lanadi. Aniqlovchining asosiy vazifasi predmetning rang-tusi, hajmi, xususiyati, tartibi, miqdori yoki biror shaxs/narsaga qarashlilikini aniqlab kelishdir.

Aniqlovchining ma'no turlari:

1. Sifatlovchi aniqlovchi va uning ifodalanishi.

Sifatlovchi aniqlovchi hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, nechta?, so'roqlariga javob bo'ladi. Fe'l, ot, sifat, ravish, taqlid so'z, olmoshlar bilan ifodalangan va hokim so'zda egalik qo'shimchalari bo'lishini talab etmaydigan aniqlovchilar sifatlovchi aniqlovchilardir.

Sifatlovchi aniqlovchi tobe bo'lakka bitishuv usuli bilan bog'lanadi. U quyidagicha ifodalanadi:

Sifatlar bilan: Predmetning belgisini bevosita ko'rsatadi (moviy osmon, shirin so'z).

Sonlar bilan: Predmetning miqdori va tartibini bildiradi (o'nta kitob, birinchi bino).

Olmoshlar bilan: Ko'rsatish va belgilash olmoshlari orqali (shu ko'cha, hamma talaba).

Sifatdoshlar bilan: Predmetning harakatga xos belgisini bildiradi (oqar daryo, aytilgan gap).

Ko'chma ma'noli otlar bilan: (tosh yurak, oltin davr).

2. Qaratqichli aniqlovchi va bog'lanish xususiyatlari.

Qaratqich aniqlovchi hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning uchta shaxsdan biriga qarashli ekanini bildirib, kimning?, nimaning?, qayerning?, singari so'roqlarga javob bo'ladi.

Qaratqichli aniqlovchi hokim bo'lakka boshqaruv usuli bilan bog'lanadi va asosan qaratqich kelishigi (-ning) orqali shakllanadi. Uning ifodalanishida quyidagi holatlar kuzatiladi:

Shaxs va narsa otlari bilan: (Akmalning daftari, maktabning bog'i).

Kishilik olmoshlari bilan: (Bizning maqsadimiz, ularda g'urur).

Otlashgan so'zlar bilan: (Yaxshining sharofati, yomonning kasofati).

Frazeologik birikmalar bilan: (Kunda-shunda bo'lganlarning hangomasi).

3. Izohlovchi – aniqlanishning millati, jinsi, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi kabi qo'shimcha belgilarni tasvirlovchi aniqlovchilar. Izohlovchi predmetni

boshqa bir nom berish bilan aniqlab keladi. Masalan: akademik Habib Abdullayev, Jo'ra soatsoz, dutorchi qizlar maktabi.

Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi. Izohlovchilar ko'pincha ot so'zlar bilan ifodalanadi. Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganda izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan: Erk kuychisi – Abdulhamid Cho'lpon she'rlarini sevib o'qiyman. Hayotning poyonsiz ummoni ichra Bor shunday g'ariblar – temirlar hissiz.

4. Aniqlovchining nutqdagi va uslubiyatdagi o'rni.

Aniqlovchilar nutqning emotsionalligi va aniqligini ta'minlaydi. Ayniqsa, badiiy uslubda epitet (badiiy aniqlovchi) sifatida qo'llanilib, tasvirlanayotgan obyektning obrazli chiqishiga xizmat qiladi. Masalan, "kumush qish", "zangori ekran" kabi birikmalar nutqning jozibadorligini oshiradi.

5. Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, aniqlovchi o'zbek tili sintaksisida o'ziga xos murakkab tizimga ega. U nafaqat so'z turkumlari darajasida, balki butun boshli so'z birikmalari va jumlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Aniqlovchini to'g'ri qo'llash nutqning mantiqiy tugalligi va badiiy boyligini ta'minlovchi muhim omildir. Aniqlovchi nutqimizning aniq, ta'sirchan va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. U narsa-buyumlarni bir-biridan farqlash va ularning xususiyatlarini batafsil yoritib berishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'ulomov A., Asqarova M. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis".
2. Sayfullayeva R. va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 2010.
3. O'zbek tili grammatikasi, I-II tom.
4. Nargiza Erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami", Toshkent, 2023.